

Sirdaryo Viloyatining Tarixiy Va Hozirgi Toponimlari

Bolibekov Alisher Abdusalomovich¹, Kenjayeva Iroda Alisherovna²

Annotatsiya: Maqolada Sirdaryo viloyatidagi tarixiy va zamonaviy toponimlar haqida ma'lumot keltirilgan. Toponimlarning kelib chiqishi, tarkibi, guruhlarini tahlil qilingan va ulardan ayrimlarining isohi berilgan.

Kalit so'zlar: toponim, etnonim, semantik guruh, tarixiy manbalar, etimologiya, zamonaviy joy nomlari, tarkib.

Kirish / Introduction

Toponimika termini (yun. topos - joy va onyma - nom) – onomastikaning joy nomlari (geografik atoqli nomlar)ni, ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatlarini, rivojlanish va o'zgarishini, tarixiy-etimologik manbalari va grammatik xususiyatlarini, ularning tuzilishini, tarqalish hududlari hamda atalish sabablarini o'rganuvchi bo'limi. Muayyan bir hududdagi joy nomlari yig'indisi - toponimiya, alohida olingan joy nomi esa toponim deb ataladi [11, b.186; 16, b.20].

Toponimlar qadimiyligi, turg'unligi, yashovchanligi bilan xarakterlanadi va o'zbek xalqining tili, tarixi, etnik tarixi, urf-odatlarini, an'analari, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlari, O'zbekiston tabiati, geografiyasi va boshqalar haqida ma'lumot beruvchi lisoniy xazina hisoblanadi. Shu bois toponimlarni tadqiq qilish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnologiya, arxeologiya, geografiya kabi fanlar uchun ham ahamiyatlidir.

O'zbek toponimikasidagi toponimlarni tuzilishiga qarab quyidagi guruhlarga tasniflash mumkin: 1) yasalish usuli va modeliga asosan, 2) yasovchi vositalarga va tarkibiy tuzilishiga asosan, 3) tarkibi va tarkibidagi birliklarga asoslangan tasniflar. Tarkibiy tuzilisha ko'ra esa sodda tarkibli, qo'shma tarkibli va murakkab tarkibli toponimlar ajratiladi.

1992 yilda O'zbekistondagi joy nomlarini qayta ko'rib chiqish jarayonida ko'plab sovet davri toponimlari o'zgartirildi va bugungi kungacha ham bu jarayon davom etmoqda. Shunday bo'lsa-da, 1970 yillardan oldin tug'ilgan mahalliy aholi ko'pincha eski joy nomlarini ishlatib kelmoqda. Shuning uchun toponimlarning, ayniqsa qishloq joylaridagi joy nomlarining tarixiy nomlarini aniqlash, ularni izohlash va lug'atlarini tuzishni bugungi kunda davom ettirish lozim. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi" [1].

Adabiyotlar tahlili/Literature analysis.

Afg'onistonlik olim Najibullah Esmati AIR Taxor viloyati toponimlarining vujudga kelishi va grammatik xususiyatlarini tahlil qilgan [16]. K.Sholimova maqolasida qadimiy va yangi toponimlarning semantik o'zgarish jarayonlari Termiz va Winchester shaharlarining toponimik tizimi misolida tahlil qilingan. Tarixiy, lingvistik va ijtimoiy omillar ta'sirida toponimlarning qanday o'zgarishi, ularning fonetik va semantik jihatdan rivojlanishi o'rganilgan. Bundan tashqari, maqolada geografik nomlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari, ularning madaniy va milliy xususiyatlari aks ettirilgan [10].

¹ GulDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti, alisher1960pc@gmail.com

² GulDU mustaqil tadqiqotchisi, kenjayeva88iroda@gmail.com



Hozirgi Sirdaryo viloyati hududiga oid toponimlarning kelib chiqishi, etimologiyasi, tuzilishi asosan XX asrning ikkinchi yarmidan o'rganila boshladi va bugungi kungacha tadqiq qilib kelinmoqda. Sovet davrida H.Hasanov, S.Qorayev, Z.Do'simov kabi olimlar joy nomlarini o'rganib, respublikamizdagi toponimlarni izohlab berishgan [17; 18; 6]. Jumladan, S.Qorayev respublikamizning har bir viloyatiga oid ayrim toponimlarini izohlab bergan. Sirdaryo viloyatiga ham oid bir nechta toponimlar izohi berilgan bo'lib, biroq, ulardan ayrimlari bugungi kunda Jizzax viloyatiga tegishli.

I.Ermatov "Mirzacho'l toponimlari tarixi haqida" nomli maqolasida XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Mirzacho 'lni Rossiya imperiyasi tomonidan o'zlashtirilishi va ularni toponimlarda aks etishi masalasi tahlil etilgan. Mirzacho 'l toponimlarining tashkil topishida Rossiya imperiyasi tuzumining ta'siri, ruslar tomonidan cho'l yerlarni o'zlashtirish va o'zlashtirilgan joylarga ruscha nomlarni berishi haqida fikr yuritiladi [14]. Shuningdek, I.Ermatov boshqa bir maqolasida Sirdaryo viloyati toponimlarning o'tmishi va bugungi holati, barqarorlashgan va beqaror toponimlar tahlil etilgan. Viloyat toponimlarining tashkil topishida sobiq sovetlar tuzumining ta'siri, toponimlarni milliyashtirishda mustaqillik mafkurasining ta'siri haqida fikr yuritiladi [13]. Z.Allayorova o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini oshirish, til siyosatining mohiyati yuzasidan o'z fikrlarini, taklif va tavsiyalarini bayon qilgan [2]. Sh.Bekturdiyev tayyorlagan "Toponimika" fanidan o'quv-uslubiy majmuada toponimlar haqida tushuncha berilgan va respublikamizdagi ayrim joy nomlarining izohlari keltirilgan [5].

Metodlar / Methods.

Maqolani yozishda tarixiy-etimologik, sotsiolingvistik va strukturaviy yondasuvlardan hamda semantik tahlildan foydalanildi.

Natijalar va munozara / Results and Discussion

Joy nomlari chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jamiyat tarixida bo'lib o'tgan xilma-xil voqea-hodisalar joy nomlarida muhrlanib qolgan. Ko'pgina geografik nomlar joylarning tabiiy sharoiti (relyefi, o'simlik va hayvonot dunyolari), aholining xo'jalik faoliyatidan axborot beradi [19, b.3].

Toponimlar yasalishida tilning appelyativ sathiga xos lug'aviy birliklar ishtirok etadi hamda faol (affiksatsiya) va nafaol (kompozitsiya va konversiya) usullari qo'llaniladi. Tarixiy-etimologik jihatdan o'zbek toponimlari umumturkiy, fors-tojik, arab va rus lug'aviy qatlamga mansubdir. Ishimizning maqsadi Sirdaryo viloyatidagi tarixiy va zamonaviy toponimlarni ko'rib chiqishdan iborat bo'lib, ularning ayrimlarini izohlab o'tamiz. Tarixiy toponimlarga quyidagilarni kiritdik:

Xovos - Xovos tumanidagi qishloq bo'lib, tarixiy joy. Arab Istahriy, Ibn Havkal va Maqdisiylar asarlarida esga olinadi, uning etimologiyasi xali aniklanmagan.

Sho'ruzak – Sayxunobod tumanidagi qishloq va ariq nomi. Uzak, ukuzak so'zlari "daryocha" ma'nosini bildirib, bu M.Qoshg'ariy asarida tilga olingan. Oltoydagi turkiy xalqlarda ba'zan vodiyni uzak deyishadi.

Jo'langar – Xovos tumanidagi qishloq. To'g'risi Jo'yi Langar bo'lishi kerak. Jo'y – tojikcha "ariq", "kanal" demakdir. Langar deganda mozar, qabr, ba'zan musofirxona, karvonsaroy, ko'proq avliyo qabri tushunilgan. Jo'langar – "avliyo arig'I" degan ma'noni anglatadi. Langar degan kichik bir o'zbek urug'i ham qayd qilingan. Biroq bu qishloq atroflarida ko'proq tojiklar yashaydi.

Yettiurug' – Guliston tumanidagi qishloq nomi. Yettiurug' – o'zbek qipchoqlari tarkibidagi yirik urug'lardan biri. Ular asosan Zarafshon daryosining o'rta oqimida, qisman Toshkent vohasida yashaganlar. Yettiurug' qozoq va qirg'izlarning etnik tarkibida ham bor. Yettiurug' oytamgali, qo'shtamgali, sirg'ali, qamchili, juvonli, samonotli, cho'michli urug'laridan iborat. Yettiurug' tarkibidagi bu urug' nomlari o'zbeklarning boshqa yirik qabilalari tarkibida ham uchraydi. Masalan, Samarqand viloyatidagi Poyariq tumanida Jetiuruv qishlog'i bor.

Sardoba – Sirdaryo viloyatidagi Sardoba (ilgari Oqoltin) tumani markazi. Samarqanddagi Paxtachi tumanida ham Sardoba qishlog'i bor. Sardoba (tojikcha) sard - sovuk, muzdek, ob - suv so'zlaridan



hamda ot yasovchi qo'shimchadan iborat bo'lib, muzdek suv saqlanadigan joy yoki suv havzasi degan ma'noni bildiradi. Bu nomning berilishiga sabab – bu yerda o'rta asrlarda pishiq gishtdan qurilgan sardoba – gumbazli suv saqlanadigan bino harobasi mavjud. Tarixdan ma'lumki, sardobalar karvon yo'li ustida qurilgan bo'lib, savdogarlar bu yerda suv ichib, ot-tuyalarini sug'orib, yo'lda davom etganlar. Shunday inshootlardan biri hozirgi Sardoba tumanida saqlanib qolingan va Sardoba joy nomi ham shundan olingan.

Qayirma – Xovos tumanidagi qishloq nomi bo'lib, Tojikistondan, ya'ni Shahriston tumanidan kelgan aholi bu yerda istiqomat qiladi. Bu aholi qo'shni Pashi qishlog'idan ajralib chiqqan. Ajralganlarni qaytarmoqchi bo'lganlarida, Pashi qishlog'ining ba'zi qariyalari “qaytarmanglar, qaytarmanglar” deyishgan ekan va shu kishilardan tashkil topgan qishloq Qayirma deb nom olgan. Ba'zi qayirmaliklar Samarqanddan ham kelishgan. Chunki ularning aytishicha, qarindoshlarining bir qismi Samarqand eshonlaridan ekan.

Pashi – Xovos tumanidagi qishloq bo'lib, qishloq nomiga sabab bo'lgan quyidagi hikoya bor: Toshkentning Oq ko'rpali degan qishlog'idan besh kishi Shahristonning qirlariga chorvachilik qilish uchun kelishgan va shu bilan tojik tilida bu joy “Panji” deb atalib, keyinchalik talaffuzda o'zgarib, “Pashi” deb atalgan. Bu kishilar urug'lari hozirda Bog'iston qishlog'ida ham ko'pchilikni tashkil qiladi [5, b.55].

Saroyqishloq – Sh.Rashidov tumanidagi qishloq, bu nom 92 bovli o'zbek qabilalaridan biri bo'lgan «Saroy» qabilasi nomidan olingan.

Paromovul – Guliston tumanidagi qishloq bo'lib, daryo yoqasida joylashib, daryoga quyilgan parom uchun shu nomda atalgan.

Boyovut – tuman va qo'rg'on nomi bo'lib, bu qadimgi mo'g'ul urug'laridan biri. Shuningdek, 92 bovli o'zbek qabilalaridan biri. Boyovut - mo'g'ulcha “boylar” degani, alpovut - alplar, baxodirlar degani Mulla Sayfiddin Axsikandiyning «Majmu –at-tavorix» asarida qayd qilingan.

Obitavon - Sayxunobod tumanidagi qishloq. XIX asr oxirida Rossiyadan kuchib kelgan ruslar tomonidan bunyod etilgan bo'lib, Obetovanniy (obetovannaya zemlya) – “orzu qilingan yer” deb atalgan. Keyinchalik mahalliy xalq uni Obitavon deb o'zlashtirib olgan [5, b.55].

Sabot (Savot) – Xovos tumanidagi qishloq. Bu qishloq tarixiy bo'lib, katta savdo yo'li ustida joylashgan. Bu nom Istahriy, ibn Havkal, Maqdisiy asarlarida tilga olinadi. Sabot arabcha nom bo'lib, “Yom”, “Bekat”, “Karvonsaroy” demakdir.

Tuqayovul – Guliston tumanidagi qishloq. Bu joy atroflari bir vaqtlar tuqay, ya'ni kamishzor bo'lgani uchun shu nom berilgan.

Malik – qishloq, Sirdaryo tumani. Malik nomi “cho'li malik” – bepoyon cho'l, katta cho'l, sultonlik cho'l kabi ma'nolarni anglatgan.

Mirzacho'l – O'rta Osiyodagi tekislik (O'zbekiston Respublikasining Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, Qozog'istonning Janubiy Qozog'iston viloyati, Tojikistonning Zafarobod tumani). 16 asrga qadar bu hudud Jizzax-Chinoz cho'li deb atalgan. 16 asrda Buxoro xoni Abdullaxon obodonchilik ishlarini avj oldirgan, Chinoz bilan Jizzax orasidagi cho'lda karvonsaroylar – rabotlar (jumladan, Mirzarabot), masjidlar, sardobalar qurdirgan. Tuyatortar kanalini qazdirib, cho'lning janubiy va markaziy qismlarida katta maydonlarga suv chiqargan, oqibatda cho'lda dehqonchilmi birmuncha rivoj topgan va irrigatsiya inshootlari qad ko'targan. 16 asr oxiridan xalq xon-mirzolarining xizmatlarini inobatga olib, Mirzaning cho'li – Mirzacho'l deb atay boshladi. Mirzo Ulug'bekning obodonchilik ishlari tufayli Chinoz-Jizzax cho'li Mirzacho'l deb atalgan degan fikr ham bor[19, b.123-124].

Moyliko'l – Sirdaryo tumanidagi qishloq nomi. Qishloq yonida ko'l bo'lgan, hozirda u qurib ketgan.

Sirdaryo – qadimiy va tarixiy daryoning nomi. Bu gidronim turli tarixiy davrlarda turlicha atalganini tarixiy-geografik manbalardan bilish mumkin. Rim tarixchisi Pliniy asarida “Silis” deb keltirilgan. Silis – sarmat, sar, sir so'zlari bilan o'zakdosh bo'lib, sart nomli qabilaga aloqador. Sir – Sirdaryoning qadimiy sak tilidagi nomi [3]. V.V.Bartold, S.G.Klyashtorniy, H.Hasanovlar ham Silis va Sir aynan bir



soʻz deb yozganlar. Rim va Yunon manbalarida Tanais va Yaksart deb ataladi. Qadimgi turkiy manbalarda Sirdaryo gidronimi Yinchuoʻgʻuz deb keltirilgan boʻlib, maʼnosi “Inju (marvarid) daryo”. “Yinchu” hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi “inju” soʻzining tarixiy fonetik varianti boʻlib, “marvarid, gavhar” maʼnolarida qoʻllaniladi. “Oʻgʻuz” soʻzi turkiycha “daryo” maʼnosini anglatadi. Sirdaryoning xitoycha nomi Chjenchuje ham Yinchuoʻgʻuz tarjimasi. Sugʻdcha Yaxshart, Aksart – Yaxsha arta ham asl marvarid demakdir [9, b.75]. Arablar daryoni Sayxun deb ataganlar. Alisher Navoiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Zahiriddin Muhammad Bobur ham Sayxun gidronimini qoʻllaganlar.

Zamonaviy toponimlarining yasashida soʻz yasovchi qoʻshimchalar keng qoʻllaniladi. Oʻzbek tilidagi soʻz yasovchi –goh, -iston, -liq, -loq, -ma, -oq, -zor, -lik, -li, -chi, -chilik, -iy, -kor, -lakabi qoʻshimchalar Sirdaryo viloyatidagi joy nomlarida ham oʻz aksini topgan.

Sholikor – Sirdaryo tumanidagi qishloq vama-halla nomi.

Pillakor – Mirzaobod tumanidagi qishloq nomi.

Anorzor – Boyovut tumanidagi mahalla nomi

Sangzor – Sardoba tumanidagi aholi yashash hududi.

Guliston – Sirdaryo viloyatining mamuriy markazi, shahar. Gul va forscha –iston (egallovchi maʼnosini bildiruvchi qoʻshimcha)dan tashkil topgan. Yashnagan, obod yer bogʻ-boʻstonlar makoni boʻlgan oʻlka [12, b.29].

Bogʻiston – Mirzaobod va Xovos tumanlaridagi aholi yashash hudud.

Qamishli – Sayxunobod tumanidagi koʻl nomi. Qamish soʻziga xoslikni bildiruvchi –li affiksini qoʻshish orqali yasalgan.

Uyuvli/Oʻyuvli – Guliston tumanidagi qishloq nomi. Oʻzbeklarning doʻrmon, qoʻngʻirot qabilalari tarkibida oʻyuvli urugʻi boʻlgan [8, b.133].

Ahillik – Sardoba tumanlaridagi qishloq, Sirdaryo, Guliston tumanlari va Guliston shaharlaridagi mahalla nomi.

Doʻstlik – Boyovut, Xovos va Mirzaobod tumanlaridagi qishloqlar nomi. Viloyatdagi barcha tuman va shaharlarda Doʻstlik nomli mahallalar mavjud. Guliston shahri markazidan oqib oʻtuvchi kanalning nomi ham Doʻstlik. Sayxunobod tumanidan oqib oʻtuvchi kanalning nomi ham Doʻstlik. Sirdaryo va Sayxunobod tumanlaridagi qabristonlar nomi ham Doʻstlik deb atalgan [12, b.27].

Bundan tashqari viloyatda yana boshqa koʻplab joy nomlarining –shunos, -dor, -dosh, -parvar, -ak, -v, -ul, -ki, -ma, -la, -q, -ot, -gʻor, -y, -ch, -chilik kabi qoʻshimchalar yordamida yasalgan manzillar ham eʼtiborga loyiq.

Xulosa / Conclusion

Sirdaryo viloyati toponimlari xronologik jihatdan tarixiy va zamonaviy toponimlarga boʻlinadi. Ular tuzilishiga koʻra sodda tarkibli, qoʻshma tarkibli va murakkab tarkibli. Tarixiy toponimlar sirasiga qadimdan nomi maʼlum boʻlgan, tarixiy manbalarda uchraydigan toponimlar kiradi. Soʻnggi yillarda sovet davrida qoʻyilgan ayrim joy nomlari etnotoponimlar bilan almashtirilgan. Ular oʻzbek xalqining etnik tarkibi haqida tarixiy-lisoniy maʼlumot beradi. Toponimlarning etimologik tadqiqi oʻzbek tili tarixini, sheva va lahjalarini, tarixiy takomilini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega.

Soʻnggi paytlarda yangi tashkil etilgan bogʻchalarga, xususiy maktablarga, oshxona, kafe va restoranlarga, xattoki firmalarga inglizcha yoki ruscha nom qoʻyilmoqda. Shunisi ajablanarliki, qoʻyilgan nomda imloviy xatolar uchramoqda (Masalan, “Solnishka” bogʻchasi). Ayrim koʻchalar nomlari takrorlanib keladi. Biron kishi sharafiga, uning xotirasini abadiylashtirishga qarata qoʻyilgan koʻcha nomlarini oʻsha kishining toʻliq ismi bilan atalishiga eʼtibor berish kerak (Masalan, Guliston shahridagi T.Ahmedov koʻchasi Toʻychi Ahmedov, Turgʻun Ahmedov va boshqa boʻlishi mumkin). Joy qoʻyganda yoki oʻzgartirganda qaror qabul qiladigan tegishli komissiyalar filolog olimlar bilan birga ularning maʼnosini, toʻgʻri yozilishini, mos kelishini tekshirishlari maqsadga muvofiq.



Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda joy nomlarini qo’yishda, eski joy nomlarini yangisiga almashtirishda toponimlarning ayniqsa bir viloyat va bitta tuman ichida takrorlanmasligiga e’tibor berish zarur. Masalan, bog’ yaratilgan barcha manzillarga Bog’iston, Olchazor, Olmazor kabi bir xil nomlar qo’ymasdan, shu bog’ni yaratishda faollik ko’rsatgan yoki va qishloqdagi qahramon insonlar sharafiga nomlash mumkin. Bu bilan ularning nomlari o’sha joyning tarixi zarvaraqlarida muhrlanib qoladi, o’sib kelayotgan avlod ularni tanib qoladi, o’rnak oladi.

Adabiyotlar ro’yxati/ References

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o’zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o’tti z yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 21-oktyabr 2019-yil.
<https://president.uz/oz/lists/view/2954>
2. Allayorova Z. O’zbek tilining davlat tili sifatidagi tarbiyaviy maqomini yuksaltirish va bugungi til siyosatining mohiyati // Ta’lim va innovatsion tadqiqotla2024. №7. – 254-259 b.
3. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Т.:Ўқитувчи, 1996. – 85 б.
4. Бегматов Э. Жой номлари –маънавият кўзгуси. – Т., 1998. – 64 б.
5. Бектурдиев Ш. “Топонимика” фанидан ўқув-услубий мажмуа. – Гулистон, 2011.- 106 б.
6. Дўсимов З. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Т., 1977. – 84 б.
7. Kenjayeva I.A. Sirdaryo viloyati etnotoponimlari. // GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI * * Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2024. № 4. – 152 b. - B. 122-124.
8. Kenjayeva , I. , Volibekov , A. . (2025). Историческое, научное и практическое значение формирования топонимов Сырдарьинской области. *Евразийский журнал академических исследований*, 5(5), 130–136. <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/52949>
9. Кляшторный С.Г. Тоньюкук-Ашида Юань Чжен. / Тюркологический сборник. К шестидесятилетию А.П.Кононова. – М.: Наука, 1966.
10. Shoyimova, K. (2025). Semantik o’zgarish jarayonlarida qadimiy va yangi toponimlarning o’zaro bog’liqligi. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 5(1), 247–250.
<http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich/article/view/463>
11. Enazarov, T. J. (2021). Shahrizabz tumani hududi joy nomlarining tarixiy-qiyosiy tadqiqi. Toshkent: Nodirabegim
12. Ermatov I. Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug’ati. - Toshkent: "BOOKMANY PRINT", 2024. - 92-b.
13. 6 Ermatov I. Sirdaryo viloyati toponimlari // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. 2023/. №12/2 (3). – Б. 103-108.
<https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/1212/1080>
14. Ermatov, Ixtiyor (2024). Mirzacho’l toponimlari tarixi haqida. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4 (3), 302-306.
15. Ermatov, Ixtiyor, & Suyarova, Dilrabo (2024). SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARINING SHAKLLANISHI XUSUSIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4 (5), 488-493.
16. Esmati, N. (2023). Toponimlarning lug’aviy-ma’noviy tasnifi. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(4), 19-29.
17. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. - Т., 1968. – 55 б.
18. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.:Ўзбекистон, 1978. – 78 б
19. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.

